



ANALYSIS OF ENGLISH BORROWINGS IN THE PERSIAN LANGUAGE

Sevinch Normuminova

*2nd-year student, Persian-English group
Higher School of Iranian Studies and Afghan Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
sevinchnormuminova05@cloud.com
Tashkent, Uzbekistan*

S. Sulonkhojayeva

*Senior Lecturer at the Higher School of Iranian Studies and Afghan Studies, TSUOS
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: loanwords, English lexicon, Persian language, lexical borrowing, cross-linguistic influence, terminology, adaptation, lexical stock.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article examines words borrowed from English into the Persian language and their usage. It demonstrates, with examples, how technology, the internet, business, culture, and international relations have influenced the incorporation of English words into Persian. The article also discusses how these words enrich the Persian vocabulary and contribute to the national lexicon. The results of the study help to understand how languages interact today and how new words are adopted. The conclusion analyzes the main factors influencing the entry of English words into Persian, each of which is illustrated with examples.

FORS TILIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALAR TAHLILI

Sevinch Normuminova

*2-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
sevinchnormuminova05@cloud.com
Toshkent, O‘zbekiston*

S. Sulonxodjayeva

*TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: oʻzlashma soʻzlar, inglizcha leksika, fors tili, leksika oʻzlashish, tillararo taʼsir, terminalogiya, adaptatsiya, leksik fond.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilidan fors tiliga kirgan soʻzlar, ularning qoʻllanilishi oʻrganiladi. Texnologiya, internet, biznes, madaniyat va xalqaro aloqalar inglizcha soʻzlarning fors tiliga kirishiga qanday taʼsir qilgani misollar bilan dalillanadi. Shuningdek, bu soʻzlar fors tilining lugʻatini boyitishi va milliy leksikaga qoʻshayotgan taʼsiri ham aytib oʻtiladi. Tadqiqot natijalari tillarning bugungi kunda bir-biriga qanday oʻtishi va yangi soʻzlarni qabul qilinishini tushunishga yordam beradi. Xulosada ingliz tilidan fors tiliga kirishiga taʼsir qiluvchi asosiy omillar tahlil qilindi va ularning har biri misollar bilan yoritildi.

АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

Севинч Нормуминова

Студентка 2 курса, персидско-английская группа

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

sevinchnormuminova05@cloud.com

Ташкент, Узбекистан

С. Султонходжаева

Старший преподаватель

Высшей школы иранистики и афганистики ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: заимствованные слова, английская лексика, персидский язык, лексическое заимствование, межъязыковое влияние, терминология, адаптация, словарный фонд.

Аннотация: В данной статье рассматриваются заимствования из английского языка в персидский язык и их употребление. На примерах показано, как технологии, интернет, бизнес, культура и международные связи повлияли на проникновение английских слов в персидский язык. Также рассматривается, как эти слова обогащают словарный состав персидского языка и влияют на национальную лексику. Результаты исследования помогают понять, как языки взаимодействуют в современном мире и как происходит заимствование новых слов. В заключении проанализированы основные факторы, влияющие на проникновение английских слов в персидский язык, каждый из которых проиллюстрирован примерами.

Kirish. Bugungi kunda dunyo juda tez o'zgarib bormoqda, odamlar bir-biri bilan doimo aloqada. Shu bilan birga tillar ham bir-biriga ta'sir qiladi va yangi so'zlar o'zaro o'tadi. Ayniqsa, ingliz tili global til sifatida juda ko'p so'zlarni boshqa tillarga, jumladan, fors tiliga olib kiryapti. Internet, texnologiya, biznes va ijtimoiy tarmoqlar orqali inglizcha so'zlar kundalik hayotimizda tez-tez uchraydi. Shu jarayon tilimizni boyitadi va zamonaviy dunyo bilan bog'laydi. Shu maqolada men ingliz tilidan fors tiliga kirgan so'zlarni, ularning paydo bo'lish sabablari va ishlatilishini o'rganamiz.

Asosiy qism.

1. Texnologik taraqqiyot va raqamli muhit ta'siri:

Zamonaviy texnologiya va raqamli muhit inglizcha so'zlarning fors tiliga kirishida eng katta omil hisoblanadi. Kompyuterlar, smartfonlar, ilovalar va onlayn xizmatlar ko'pincha inglizcha nomlanadi va keyin deyarli o'zgarimas holda fors tilida ishlatiladi.

Biz to'plagan texnikaga oid atamalar quyidagilar:

- computer → کامپیوتر → kompyuter
- laptop → لپتاپ → noutbuk
- internet → اینترنت → internet
- email → ایمیل → elektron pochta
- scanner → اسکنر → skaner
- printer → پرینتر → printer

Ushbu misollarni yanada tushunarliroq bo'lishi uchun jumlar orqali keltirib beramiz:

. امروزه کامپیوتر امری اجتناب ناپذیر است و وجود آن در زندگی روزمره ما بسیار مهم و ضروری شده است

-Bugungi kunda kompyuter ajralmas (undan qochib bo'lmaydigan) narsa bo'lib qoldi va uning kundalik hayotimizda mavjudligi juda muhim hamda zarur bo'lib qolgan.

- ایمیل یا شماره تلفن و گذرواژه حساب

خود را وارد کنید

-Hisobingizning elektron pochta manzili yoki telefon raqami va parolini kiriting.

Shuningdek, mobil va dasturiy ilovalar orqali kirib kelgan so'zlar ham keng tarqalgan:

- app → اپ → ilova
- download → دانلود → yuklab olish
- upload → آپلود → yuklash, internetga joylash
- update → آپدیت → yangilash
- login → لاگین → tizimga kirish
- password → پسورد → maxfiy parol

- . در دنیای میزبانی وب، مفاهیم آپلود و دانلود ستون‌های اصلی مدیریت وب سایت و انتقال داده‌ها هستند

-Veb-xosting dunyosida upload (yuklash) va download (yuklab olish) tushunchalari veb-saytni boshqarish va ma'lumotlarni uzatishning asosiy ustunlari hisoblanadi.

2. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli vositalar odamlar hayotida juda muhim o‘rin tutadi. Insonlar Instagram, Telegram va boshqa platformalar orqali bir-biri bilan tez va qulay muloqot qilmoqda. Ayniqsa, yoshlar o‘z fikrlarini internet orqali bildiradi, rasm va videolar ulashadi hamda turli sahifalarni kuzatadi. Shu jarayonda ingliz tilidan kirib kelgan ko‘plab so‘zlar fors tilida ham keng qo‘llanilmoqda. Bu so‘zlar ko‘pincha asl shaklini saqlab qoladi va kundalik nutqda tabiiy ishlatiladi.

- blog → بلاگ → blog
- online → آنلاین → onlayn
- like → لایک → layk
- follower → فالوور → obunachi
- post → پست → xabar/post

Endi bu so‘zlarning fors tilida qanday eshutilishini jumlar orqali ko‘rib chiqamiz:

بلاگ‌های مدرن امروزی اغلب دارای امکاناتی برای انتشار محتواهای چندرسانه‌ای صوتی و ویدئویی که با نام پادکست شناخته می‌شوند نیز در اختیار نویسندگان قرار می‌دهند .

-Hozirgi zamonaviy bloglar ko‘pincha audio va video kabi multimedia kontentlarini joylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bu kontentlar podkast nomi bilan taniladi va mualliflar uchun taqdim etiladi

- چند نفر فالوور دارید؟

-Sizda nechta kuzatuvchi bor?

3. Biznes va iqtisodiy munosabatlar:

Biznes va iqtisodiy faoliyat sohasida inglizcha so‘zlar kundan-kunga ko‘proq ishlatilmoqda. Ular nafaqat rasmiy hujjatlarda, balki ishdagi suhbatlarda, taqdimotlarda va hatto oddiy kundalik muloqotda ham tabiiy ravishda qo‘llanadi. Shu tariqa, inglizcha atamalar fors tiliga kirib, zamonaviy iqtisodiy tushunchalarni aniq va tez ifodalashga yordam beradi.

- manager → منیجر (menedjer)
- marketing → مارکتینگ (marketing)
- brand → برند (brend)

Quyida keltirilgan jumlar biznes va iqtisod haqidagi atamalarni faol qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi:

- .اكانت منیجر یکی از نقش‌های کلیدی و استراتژیک در بسیاری از شرکت‌هاست

- Hisob menejeri ko‘plab kompaniyalarda muhim va strategik lavozimlardan biri hisoblanadi

4. Oziq-ovqat mahsulotlari:

Ingliz tilidagi zamonaviy taomlar va mahsulotlar ko‘plab tillarga ta‘sir qilgani kabi fors tiliga ham ta‘sir qilgan. Ular nafaqat restoran va kafelarda tez-tez uchraydi, balki uyimizda, do‘stlar bilan

uchrashuvlarda va ijtimoiy tarmoqlarda ham keng ishlatiladi. Zamonaviy oshxona va fast food madaniyati shunday tez sur'atda rivojlanib bormoqdiki, inglizcha atamalar fors tilida deyarli o'zgarimas holda qabul qilinib va kundalik nutqimizga tabiiy tarzda singib ketmoqda.

- muffin → مافین (mafin)
- sandwich → ساندویچ (sendvich)
- hot dog → هات داگ (hot-dog)
- popcorn → پاپ کورن (popkorn)

مافین ها نان های شیرین تکه نقره و کوچکی هستند. که در تهیه آن ها از خامه و جربی زیادی استفاده نمیشود.

Maffinlar kichik, bir kishilik shirin nonlardir. Ularni tayyorlashda qaymoq va ko'p yog' ishlatilmaydi.

ساندویچ یک نوع غذای محبوب ناهار است که به عنوان بخشی از یک ناهار بسته‌بندی شده به محل کار، مدرسه یا پیک نیک برده می‌شود.

Sendvich tushlik uchun mashhur taom bo'lib, u ko'pincha ishga, maktabga yoki piknikka olib boriladigan qadoqlangan tushlikning bir qismi sifatida ishlatiladi.

5. Hayvon nomlari

Hayvon nomlari ham ba'zi hollarda ingliz tilidan fors tiliga o'tgan, lekin ular ko'p emas. Chunki ko'pchilik hayvonlarning fors tilida qadimiy o'z nomlari bor. Shunga qaramay, zamonaviy davrda, ayniqsa ekzotik hayvonlar yoki ilmiy nomlarda inglizcha shakllar ishlatilishi haqida o'rgandik va manbalar asosida izlanib topganlarimizni bo'lishamiz:

- panda → پاندا (panda)
- گفته شده پاندا يك حيوان اهلی و آموزش پذیر است

-Aytilishicha, panda uy hayvoni va o'qitishga o'rgatiladigan hayvon hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, ingliz tilidan fors tiliga kirib kelayotgan so'zlar zamonaviy jamiyat hayotining turli sohalarida faol ishlatilmoqda. Texnologiya, internet, biznes, madaniyat va xalqaro aloqalar kabi yo'nalishlar bu jarayonning asosiy omillari sifatida namoyon bo'ladi. Natijada inglizcha o'zlashmalar fors tilida keng tarqalib, yangi tushunchalarni ifodalash va zamonaviy jarayonlarni tushuntirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida ingliz tilidan fors tiliga o'zlashgan bir qator so'zlar misollar asosida tahlil qilindi va ularning qo'llanish xususiyatlari aniqlandi. Bu esa inglizcha o'zlashmalar fors tilining lug'at boyligini kengaytirish va zamonaviy til jarayonlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рубинчик Ю. А. Персидско-русский словарь: в 2-х томах. — Москва: Русский язык, 1985. — 2 т.
2. Sahranavard N. English Loanwords in Persian // Iranian Studies. — 2025.

3. Sedighi A., Shabani-Jadidi P. The Oxford Handbook of Persian Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 2018.
4. Quronbekov A., Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. <https://www.ravaan.co/english-words-with-persian-roots/>
6. <https://www.alef.ir/news/4040706098.html?show=amp>
7. <https://vajehyab.com/>